



“PAPAYA” (*Cárica papáya L.*) YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Raimova Sitora Erali qizi

Samarqand Agroinnovatsiyalar va Tadqiqotlar Instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada papaya o'simligining amaliy ahamiyatini o'rganish haqida yoritilgan. Shuningdek papaya o'simligi, uning sistematik o'rni, uning amaliy ahamiyati, qadimdan da'vo bo'lgan kasalliklari haqida. Hozirda o'zimizda ham yetishtirish texnologiyasi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Yetishtirish agrotexnikasi, Iqlimlashtirish, Qovun daraxti, Ko'paytirish usullari.

ANNOTATION

In this article, we will study the practical importance of the papaya plant covered about. Also papaya plant, its systematic place, its practical importance, about diseases that have been claimed since ancient times information about cultivation technology was also given.

Key words: Cultivation agrotechnics, Climate control, Melon tree, Propagation methods.

Kirish

O'zining dorivorlik xususiyatlari bilan ajralib turuvchi o'simliklardan biri papaya (*Carica papaya L.*) 2004 yilgi FAO ma'lumotlariga ko'ra dunyo bo'ylab 389 990 ga maydonda ekib o'stirilgan. Ushbu maydonlardan jami 6,8 million tonnadan ortiq papaya mevasi yetishtirilgan. Papaya” (*Cárica papáya L.*) –Qovun daraxti, papayya — papayyadoshlarga mansub doim yashil mevali daraxt. Afrika va Jan.-Sharqiy Osiyoda ko'p tarqalgan. Balandligi 4–7 m. Barglari yirik, panjasimon qirqilgan, 5—7 bo'lakli, uzun bandli. Shox-shabbasiz, tanasining uchida g'uj-g'uj o'rnashgan barglari soyabonga o'xshab osilib turadi. Gullari sarg'ish-oq, ikki jinsli. Mevasi sariq tusda, og'irligi 3–6 kg, uz. 30 sm, qovunga o'xshaydi (nomi shundan). Qovun daraxti tez o'sadi, lekin uzoq yashamaydi, sovuqqa chidamsiz. Tropiklarda o'stiriladi. Mevasi iste'mol qilinadi. Undan papain fermenti olinadi. Urug'idan ko'paytiriladi. Issiqxona harorati plyus 10 darajadan yuqori bo'lganida papayya tinmay gullayveradi, Issiq iqlimda o'sgani bois issiqxona sharoitiga yaxshi moslashadi. Ammo kasallikka tez chalinib, birdan qurib qolish holatlari ham uchray turadi. Shu bois bu o'simlikka o'ta e'tiborli bo'lish talab etiladi. Bu «qovun



daraxti»ning dorivor xususiyati ko'p. Organizmning immun tizimini mustahkamlashda, ovqat hazm qilishni yaxshilashda, hatto bepushtlikda nafi katta. Yaxshi parvarish qilinsa, bir tupidan 100-200 donagacha meva berad Papayya pishganida po'sti oltin rangga kiradi, ichi esa zangori, mazasi va hidi yangi uzilgan qovunni eslatadi. "Qovun daraxti" deyilishi ham shundan. Ma'lumotlarga ko'ra, papayyaning mingdan ortiq navi bo'lib, qaysi mamlakatda o'sishiga qarab nafaqat mevasining ko'rinishi, balki mazasi ham farq qilar ekan. Biroq ularni bir xususiyat birlashtirib turadi - salomatlik uchun foydalilik. 100 gramm papayyada 26-74 kaloriyagacha energetik quvvat mavjud bo'ladi



Papayya (*Carica papaya*) dunyoning 60 dan ortiq mamlakatlarida yetishtiriladigan muhim va keng tarqalgan tropik meva hisoblanadi. So'nggi bir necha yil ichida papayya ishlab chiqarish, asosan, Hindistonda ishlab chiqarishning ko'payishi natijasida sezilarli darajada o'smoqda. Papayya rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim qishloq xo'jaligi mevasi hisoblanadi va uzini shirin shifobahshligi bilan boshqa mevalardan ajralib turadi shuning uchun ham bu mevaga talab yuqoridir. **Papaya yetishtirish agrotexnologiyasi.** Papayyani dehqonlar "Qovun daraxti" deb ham atashadi. 3-4 yilcha avval 2 tup ko'chatidan ekkandik. Papayyani shifobaxsh o'simlik deb bilishadi. Yerga qadaganingizdan so'ng 6-7 oyda hosilga kirdi. Mevasining og'irligi dastlabki yosh daraxtlik vaqtida 1-3 kg, daraxt kattalashga sari uning hosili 5-7 kg gacha yetadi.



Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, papaya (*Carica papaya* L.) butun dunyoda o'zining ajoyib va shifobaxsh xususiyatlari bilan tanilgan juda mashxur dorivor va oziq-ovqat o'simligi hisoblanadi shu bilan birgalikda sanoatda, farmatsitikada va boshqa sohalarda ham keng qulaniladi.

REFERENCES

1. Yogiraj, V., Goyal, P. K., Chauhan, C. S., Goyal, A., & Vyas, B. (2014). *Carica papaya* Linn: an overview. *International journal of herbal medicine*, 2(5), 01-08.
2. Gupta R, Sharma AK, Dobhal MP, Sharma MC, Gupta RS. Antidiabetic and antioxidant potential of β -sitosterol in streptozotocin-induced experimental hyperglycemia. *J Diabetes*. 2011; 3(1): 29-37.
3. Hewitt H, Whittle S, Lopez S, Bailey E, Weaver S. Topical use of papaya in chronic skin ulcer therapy in Jamaica. *West Indian Med J*. 2000; 49(1): 32-33.
4. Jayakumar R, Kanthimathi MS. Inhibitory effects of fruit extracts on nitric oxide-induced proliferation in MCF-7 cells. *Food Chem*. 2011; 126(3): 956-960.
5. Khan FA, Hussain I, Farooq S, Ahmad M, Arif M, Ur Rehman I. Phytochemical Screening of Some Pakistanian Medicinal Plants. *Middle East J Sci Res*. 2011; 8(3): 575-578.
6. Қўшоқович, Қ. С., Спйфидинов, Х. З., & Самаридинович, Қ. Н. (2024). ГИЛОС (CERASUS AVIUM L.) МЕВАЛИ ЭКИНИНИ ЕТИШТИРИШНИНГ АМАЛИЙ ЖИХАТЛАРИ. *TADQIQOTLAR. UZ*, 31(1), 154-159.
7. Storey, W. B. (1969). Papaya (*Carica papaya* L.). *Papaya (Carica papaya L.)*.
8. Shavkatovna, X. M., Ziyedullayevich, S. X., & Qo'shoqovich, Q. S. (2024). SHAFTOLI, OLXO 'RI VA BODOM PAYVANDTAGLARINI ISSIQXONADA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI. *TADQIQOTLAR. UZ*, 31(1), 163-167.
9. Jiménez, V. M., Mora-Newcomer, E., & Gutiérrez-Soto, M. V. (2014). Biology of the papaya plant. *Genetics and genomics of papaya*, 17-33.
10. Yalgashev, A., & Murodova, D. (2023). ZAMBURUG 'LI KASALLIKLAR SARIQ VA QO 'NG 'IR ZANGA CHIDAMLI NAV NAMUNALAR. PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION, 19(23), 134-137.
11. Krishna, K. L., Paridhavi, M., & Patel, J. A. (2008). Review on nutritional, medicinal and pharmacological properties of Papaya (*Carica papaya* Linn.).